

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

YEON SANGHEUM

**O‘ZBEK TILIDA MODAL MA’NOLI KO‘MAKCHI FE’LLAR VA
ULARNING KOREYS TILIDA IFODALANISHI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

UO‘K: 811.512.133:811.531

КБК: 81.2-2

U-43

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Yeon Sangheum

O‘zbek tilida modal ma’noli ko‘makchi fe’llar va ularning koreys tilida
ifodalanishi 3

Ён Санхым

Модальные вспомогательные глаголы в узбекском языке и их
выражение в корейском языке..... 23

Yeon Sangheum

Modal auxiliary verbs in Uzbek and their expression in Korean language 45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

YEON SANGHEUM

**O‘ZBEK TILIDA MODAL MA’NOLI KO‘MAKCHI FE’LLAR VA
ULARNING KOREYS TILIDA IFODALANISHI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1512 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuos.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Usmonova Shoira Rustamovna

filologiya fanlari doktori, professor

Kalanova Dilnoza Temurovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/30.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil «___» _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko‘chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko‘chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.)

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil «___» _____kuni tarqatildi.

(2022 yil «___» _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

R.A. Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.d., dotsent

X.Z. Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi globallashtirish jarayonida jahon tilshunosligida qiyosiy tilshunoslik doirasida fundamental ishlarni amalga oshirishga bo'lgan intilish yanada ortmoqda. Zero, qiyosiy tilshunoslik chet tili o'qitish metodikasining asosi sanalib, qarindosh tillarning turli sathlarini o'zaro taqqoslash natijasida o'rganilayotgan tillarning qulay va samarali o'zlashtirish usullarini aniqlab beradi. Shuningdek, qarindosh tillarning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ochib berish, tillararo universalialar va muqobillarni aniqlash, har bir tilning milliy-madaniy holati hamda tillarning bir-biriga ta'siri singari masalalarni tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Dunyo tilshunosligida fe'l so'z turkumi, uning tasnifi va turlari tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlarning ko'lami ortib bormoqda. Xususan, ko'makchi fe'lning fe'l turkumi orasidagi o'rni, ma'nolari, shakllari, ifodalanishi kabi o'ziga xos jihatlari ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, olib borilgan izlanishlarning aksariyati muayyan til doirasida, uning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilib, ko'makchi fe'llar qiyosiy asnoda o'rganilmagan. Qarindosh tillar doirasidagi ko'makchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy tomondan yetarlicha asoslab berilmaganligi muammoni majmuaviy va tizimli tadqiq qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi"¹ – deb ta'kidlandi va bu maqsadni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish" agentligi tashkil etilishi ma'lum qilindi. Shuningdek, davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish metodikalarini yaratish ham mazkur agentlikning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi alohida qayd etildi. Koreya Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrda 15963-son "특수외국어 교육 진흥에 관한 법률" "Chet tilidagi maxsus ta'limni rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori²ga muvofiq, Koreya Respublikasining milliy taraqqiyoti va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan chet tillari qatoriga o'zbek tili ham kiritilgan. Bugungi kunda o'zbek tili o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uni yangi bosqichga olib chiqish borasida sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada muhim grammatik kategoriya hisoblangan ko'makchi fe'llarni o'zbek va koreys tillarida qiyosiy aspektida tadqiq etish va shu asnoda ularning modal ma'nolarini aniqlash hamda muqobillarini ko'rsatib berish dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy axborot agentligi, 2021. 6-may. (<https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi>) 2022-yil 15-fevral kuni murojaat qilindi.

² Koreya Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrda 15963-son qarori. (<https://www.law.go.kr>) 2022-yil 15-fevralda murojaat qilindi.

to‘g‘risida”³gi Farmoni, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴gi Qarori, shuningdek, mazkur sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, man‘aviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida fe‘l so‘z turkumiga oid muammolar, xususan, fe‘lning turlari, yasalishi va grammatik kategoriyalari haqidagi muhim ma‘lumotlar dastlab A.Kononov, A.G‘ulomov, A.Hojiyev, S.Ferdaus, A.Yuldashev, Sh.Shukurov, S.Mutallibov, M.Mirtojiyev, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov kabi taniqli olimlarning izlanishlarida⁵ o‘z ifodasini topib, fe‘l nazariyasining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Shuningdek, fe‘llarning ba‘zi semantik turlari (nutq, holat, yumush, sezish, yo‘nalma, obyektli va obyeksiz harakat fe‘llari), valentlik ko‘rinishlari va ularning semantik xususiyatlari I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, S.Muhamedova, M.Abuzalovalarning doktorlik⁶hamda O‘.Sharipova, D.Abdullayeva, Z.Siddiqov, T.Musayev, G.Narimova, V.Karimjonova, G.Isaqova va boshqalarning nomzodlik dissertatsiyalarida⁷ tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida fe‘l + fe‘l modeli fe‘llarni o‘rganishga ilk bor A.G‘ulomov va S.Ferdauslar e‘tibor qaratdilar. Ko‘makchi fe‘l mavzusida o‘rganilgan ishlar orasida A.Hojiyevning monografiyasi alohida e‘tiborga molik. Mazkur monografiyada o‘zbek tilshunosligida qo‘shma fe‘l, yordamchi fe‘l, ko‘makchi fe‘l

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. (<https://lex.uz/docs/5841063>) 2022-yil 15-fevral kuni murojaat qilindi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.04.2020-yildagi PQ-4680-son. (<https://lex.uz/docs/4791086>) 2021-yil 1-dekabrda murojaat qilindi.

⁵ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1960. – С. 187; Фуломов А. Фейл. – Тошкент: Фан, 1954. – 88 б.; Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – 259 б.; Ҳожиёв А. Фейл. – Тошкент: Фан, 1973. – 192 б.; Фердаус А. Феълларнинг вид категорияси. – Тошкент, 1957.; Юлдашев А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. – М.: Наука, 1965.; Шукуров Ш. Феъл тарихидан. – Тошкент: Фан, 1970.; Муталлибов С. X I аср ёзма ёдгорликларида феъл категорияси. – Тошкент: Фан, 1955.; Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 122 б.; Абдурахмонов Ф., Шоабдурахмонов Ш., Ҳожиёв А. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1976. – 373 б.

⁶ Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ). Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1977. – 168 с.; Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность. Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 34 с.; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 325 б.; Абдулова М.К. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик қурилма. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 32 б.

⁷ Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1996. – 152 б.; Абдуллаева Д. Семантик-синтактик валентлик ва ўзга гапли қурилмалар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – 22 б.; Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида кўрув лексемалари семантикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 27 б.; Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1992. – 145 б.; Наримова Г.А. Ўзбек тилида феълларнинг объект аргументи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2005.; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.; Исакова Г. Ўзбек тилидаги қилмоқ феълининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2009.

kabi terminlarning mohiyati ochib berilgan, ko‘makchi fe‘l chuqur va to‘liq tadqiq etilgan. Bizning ilmiy ishimizda ushbu asar asosiy tayanch manba sifatida olingan⁸.

Koreys tilshunosligida ko‘makchi fe‘llar mavzusi XIX asrning oxirlarida o‘rganila boshlandi. 유길준 (Yu Giljun)ning 대한문전(大韓文典) [dehanmunjon] “Buyuk koreys tili grammatikasi”⁹ asarida ilk bor koreys tili grammatikasiga ingliz tilidagi can, may va shall kabi 조동사 [jo‘do‘ngsa], ya‘ni yordamchi fe‘llar haqidagi tushuncha olib kirildi. Bu davrdagi tadqiqotlar xorijliklarga koreys tilini o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularda ko‘makchi fe‘llar masalasi alohida yoritilmadi.

최현배 (Cho‘e Hyonbe) 우리말본 [urimalbo‘n]¹⁰ “Koreys tili grammatikasi” nomli asarida 조동사 [jo‘do‘ngsa] terminining noto‘g‘ri qo‘llanilganini isbotlab, ko‘makchi fe‘l tushunchanisini ifodalash uchun 보조동사 [bo‘jo‘do‘ngsa] terminini ilmiy muomalaga kiritdi.

Keyinchalik koreys tilshunosligida ko‘makchi fe‘llar mavzusi 이주행 (I Juheng), 이관규 (I Go‘angyu), 유목상 (Yu Mo‘gsang), 김기혁 (Gim Gihyog), 황병순 (Ho‘ang Byongsun), 고영근 (Go‘ Yonggin), 남기심 (Nam Gishim), 서정수 (So Jongsu), 손세모돌 (So‘n Semo‘do‘l), 민현식 (Min Hyonshig), 장수진 (Jang Sujin)¹¹ kabi qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganildi.

Ko‘makchi fe‘llar sohasida amalga oshirilgan aksariyat tadqiqotlarda e‘tiborga molik nazariy xulosalar berilgan bo‘lsa-da, ularda ko‘makchi fe‘llarning semantik-funksiyonal vazifalariga ko‘ra ilmiy tasnifi yetarli darajada ishlab chiqilmagan va ularning soni bo‘yicha ham bir to‘xtamga kelinmagan. Xususan, shu vaqtga qadar o‘zbek va koreys tillarida ko‘makchi fe‘llarning turlari qiyosiy tadqiq etilmagan. Mazkur ishda o‘zbek tilida qo‘llanuvchi modal ma‘noli ko‘makchi fe‘llarning koreys tilida ifodalanishi tadqiq etildi. Ko‘makchi fe‘llarning qiyosiy o‘rganilishi har ikki til uchun muhim hisoblangan yangi jihatlarni ochishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi modal ma‘noli ko‘makchi fe‘llarni, ularning koreys tilidagi muqobil shakllari, ifodalanish usullarini qiyosiy aspektida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va koreys tilshunosligida ko‘makchi fe‘llarning o‘rganilishi masalasini yoritish va ularga munosabat bildirish;

o‘zbek tilida modal ma‘no ifodalovchi ko‘makchi fe‘llarning semantik-sintaktik xususiyatlarini ochib berish;

o‘zbek tilidagi modal ma‘no ifodalovchi ko‘makchi fe‘llarning tasnifini ishlab chiqish;

⁸ Хожиев А. Ўзбек тилида қўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – 259 б.

⁹ 유길준. 대한문전(大韓文典). – 안악면학회(安岳勉學會), 1908, 1909.

¹⁰ 최현배. 우리말본. – 정음사, 1937, 1955.

¹¹ 이선웅. 현대 국어 보조용언 연구국어 보조용언. – 서울대학교, 1995.

o'zbek tilida modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llarni koreys tilidagi ko'makchi fe'llar bilan qiyoslash;

o'zbek tilida modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llarning koreys tilidagi muqobil shakllarini aniqlash;

har ikkala tildagi ko'makchi fe'llarning qo'llanishiga ko'ra, o'xshash va farqli jihatlarini belgilash.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbek va koreys tillaridagi modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi modal ma'noli ko'makchi fe'llar va ularning koreys tilida ifodalanishi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, qiyoslash va semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilida modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llarni koreys tilidagi ko'makchi fe'llar bilan qiyoslash orqali ularning koreyscha ko'makchi fe'l, ko'makchi sifat, mustaqil fe'l kabi muqobil shakllariga to'g'ri kelishi isbotlangan;

o'zbek tilida modal ma'no ifodalovchi 13 ta ko'makchi fe'lning bog'lanish vositasiga ko'ra *-(i)b* va *-a, -y* bilan qo'llanishi bo'yicha ajratilib, koreys tilidagi *-o/h/o,* *-ㄱ, -ㄷ, -ㄹ* kabi vositalar bilan bog'langan muqobil shakllar orqali ifodalash to'g'riligi dalillangan;

har ikki tilning agglyutinativ til guruhiga kirishiga aloqador tarzda butunlay ko'makchi fe'lga aylangan birorta fe'lning mavjud emasligi, "yetakchi fe'l + ko'makchi fe'l" shaklida, affikslar orqali birikib, ketma-ket qo'llanishi kabi universalialarning mavjudligi aniqlangan;

o'zbek tilida inkor shaklida qo'llangan modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llar koreys tilida asosan *-ㄹ* vositasida bog'lanib, o'zi inkor ma'noni bildiradigan *않다, 팔다* kabi ko'makchi fe'llar bilan ifodalanishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiya natijalari o'zbek va koreys xalqlari o'rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalarning rivojlanishiga hissa bo'lib qo'shilgan;

o'zbek tilidagi modal ma'noli ko'makchi fe'llarning ifodalashini aniqlash orqali uning koreys tilidagi muqobil shakllari belgilandi va buning natijasida o'rganilayotgan tillarning qulay va samarali o'zlashtirish usullari ishlab chiqilgan;

o'zbek va koreys tillaridagi ko'makchi fe'llarning qiyosiy tadqiqi orqali qarindosh tillarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini haqida xulosalarga kelindi;

o'zbek va koreys tillaridagi ko'makchi fe'llar lug'atini tuzish imkoni paydo bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'zbek tilida modal ma'noli ko'makchi fe'llar va ularning koreys tilida ifodalanishi masalasi bo'yicha muammoning qo'yilganligi, ko'makchi fe'llarning qiyosiy aspekt nuqtayi nazaridan asoslanganligi, hozirgi tilshunoslik yutuqlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan vazifalarga mos keluvchi tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, to'plangan ilmiy materiallar tahlili orqali asosli ilmiy xulosalar chiqarilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek va koreys tillarida modal ma'noni ifodalovchi ko'makchi fe'llarning semantik-sintaktik va pragmatik xususiyatlariga doir nazariy qarashlarni

yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilishi; fe'l kategoriyasi, xususan, ko'makchi fe'llarning turlari va tasnifi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalaridan o'zbek tili nazariy grammatikasini koreys auditoriyasida, shuningdek, koreys tili nazariy grammatikasini o'zbek auditoriyasida o'qitish, o'zbek va koreys tillari qiyosiy grammatikasini yaratish, koreyslar uchun "O'zbek tili", "O'rta bosqich o'zbek tili grammatikasi", "O'rta bosqich o'zbek tilida so'zlashuv", "Yuqori bosqich o'zbek tili" fanlaridan, o'zbeklar uchun "Koreys tili" fanidan o'quv qo'llanmalar tayyorlash, oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichida "Qiyosiy tilshunoslik" fanini o'tishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilida modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llar va ularning koreys tilida ifodalanishini tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ol ko'makchi fe'li ravishdoshning -a, -y affikslari orqali yasalgan turlarining qo'llanilishi haqidagi fikr va mulohazalardan OT-F1-78 raqamli "Hozirgi globallashuv davrida o'zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (o'zbek tili vazifaviy uslublari tahlili asosida)" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining 2021-yil 17-dekabrda 175-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tili lug'at tarkibi taraqqiyoti haqidagi nazariy fikrlarning dalillanish darajasi ortgan;

o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarning semantik-sintaktik va pragmatik xususiyatlari haqidagi nazariy qarashlardan Koreya Respublikasi Hankuk chet tillari universiteti Markaziy Osiyo kafedrasida o'quv dasturi bo'yicha olib borilayotgan "O'rta bosqich o'zbek tili grammatikasi", "O'rta bosqich o'zbek tilida so'zlashuv", "Yuqori bosqich o'zbek tili" fanlari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning nazariy va amaliy jihatdan boyishiga xizmat qilgan. Shuningdek, Koreya Respublikasi tomonidan qo'llab-quvvatlagan CFL (Maxsus xorijiy tillar ta'limi) dasturi doirasida kafedra tomonidan qishki va yozgi ta'vil davrida o'tkazilayotgan "O'zbek tili" intensiv kurslarini o'qitishda hamda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanilgan (Koreya Respublikasi Hankuk chet tillar universitetining 2021-yil 8-noyabrda ma'lumotnomasi). Natijada xorijiy talabalar uchun murakkab hisoblangan "Ko'makchi fe'llar" mavzusini yoritish va bu kategoriyaning talabalar tomonidan qulay o'zlashtirilishida yordam bergan;

o'zbek va koreys tillarida ko'makchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari va farqli jihatlariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Koreya Respublikasi elchixonasi qoshidagi Koreya Respublikasi Ta'lim markazi darsliklarini yaratishda foydalanilgan (Koreya Respublikasi elchixonasi qoshidagi Koreya Respublikasi Ta'lim markazining 2021-yil 10-noyabrda KEC-21-119-son ma'lumotnomasi). Natijalar O'zbekiston Respublikasida koreys tili o'qituvchilarini tayyorlash hamda malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 3 ta respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 11 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda mavzuning dolzarbligi va zarurati, maqsad hamda vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning «**O'zbek va koreys tillarida ko'makchi fe'llar va ularning tadqiqiga oid yondashuvlar**» deb nomlangan birinchi bobida o'zbek tilshunosligida ko'makchi fe'llar talqini hamda koreys tilshunosligida ko'makchi fe'llarning tavsifi va tasnifi yoritilgan. Shuningdek, o'zbek va koreys tilshunosligida modallik kategoriyasini o'ziga xos jihatlari ifodalangan.

O'zbek tilshunosligida fe'l harakat tarzi shaklining o'rganilishi, asosan, XX asrning 40–50-yildan avj oldi. Dastlab o'zbek tilida harakat tarzi sahkli tavsifiy usul asosida ko'makchi fe'l termini ostida o'rganildi. O'zbek tilshunosligida bu borada S.Ferdaus, G.Sharipov, S.Akbarov, T.Almamatovlarning ishlari hamda A.Kononov, A.G'ulomov, A.Hojiyev, U.Tursunov, J.Muxtorov, B.Jo'rayev¹² kabi olimlarning o'quv qo'llanma hamda maqolalari shu mavzuga bag'ishlangan.

O'zbek tilida “ko'makchi fe'l” tushunchasining mohiyati, ko'makchi fe'llarga xos xususiyatlar, ular ifodalagan ma'nolarning kelib chiqishi va h.k. masalalar A.Hojiyevning qator tadqiqotlarida to'laqonli yoritib berildi. Uning ishi alohida e'tiborga molik deb baholanadiki, turkiy adabiyotda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham o'sha vaqtga qadar yuritib kelingan qo'shma fe'l, yordamchi fe'l, ko'makchi fe'l kabi istiloh mohiyatini ochib bergan. Undan yagona ko'makchi fe'l atamasi mohiyatga yaqinroq kelishini izohlab berdi va tilshunoslik termini sargardonligidagi muammosidan biriga oydinlik kiritdi deb baholanadi¹³.

A.Hojiyevning qayd etishicha: “o'zbek tilida tamomila ko'makchi fe'lga aylangan (faqat ko'makchi fe'l sifatida qo'llanadigan) fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanadi va turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular quyidagilar: *boshla, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, bit, ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o'l, o't, yet, ko'r, qara, boq, bil, yoz*”¹⁴.

A.Hojiyev o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarning ma'no va vazifalaridagi umumiy tomonlariga ko'ra uch asosiy guruhga ajratgan:

¹² Фердаус С. Феълларнинг вид категорияси. – Тошкент, 1957. – Б. 84–93; Акбаров С. Ўзбек тилида қўшма феъллар. – Тошкент, 1953.; Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966.; Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973.; Турсунов У., Мухторов Ж. Ҳозирги замон ўзбек тили. Морфология. – Самарқанд, 1960.; Сайфуллаева Р.Р. Замонавий ўзбек тили морфологияси. – Тошкент, 2008. – Б. 353.

¹³ Сайфуллаева Р.Р. Замонавий ўзбек тили морфологияси. – Тошкент, 2008. – Б. 353.

¹⁴ Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 14–15.

1. Harakat protsessining xarakteristikasini bildiruvchi ko‘makchi fe‘llar.
2. Modal ma‘nolarni ifodalovchi ko‘makchi fe‘llar.
3. Yo‘nalish ma‘nosini ifodalash ko‘makchi fe‘llar¹⁵.

Umuman, XXI asrga kelib o‘zbek tilshunosligida ko‘makchi fe‘l mavzusida ko‘plab izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, ularning aksariyatida faqat ayrim ko‘makchi fe‘llargina tadqiqotga tortildi. Shuningdek, ko‘makchi fe‘l mavzusiga bag‘ishlangan aksariyat asar va grammatikaga doir ishlarni tahlil qilish natijasida bir qancha munozarali fikrlar aniqlandi. Binobarin, ko‘makchi fe‘llar borasida tasniflarni tahlil qilish jarayonida ko‘makchi fe‘l turlari o‘rtasida son jihatdan keskin tavofutlar kuzatildi. Xususan, A.Po‘latov, T.Mo‘minova va I.Po‘latovalarning “Дунёвий ўзбек тили” asarida ko‘makchi fe‘llarning soni 28 ta deb qayd etilib, *chiqarmoq* fe‘li ham ko‘makchi fe‘llar qatoriga kiritilgan¹⁶.

N.Turniyozov va A.Rahimovlarning tadqiqotida *boshla, yot, tur, yur, o‘tir, bo‘l, bit, ol, ber, qol, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o‘l, o‘t, yet, ko‘r, qara, boq, yoz* kabilar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladigan ko‘makchi fe‘llar sifatida qayd etilgan mazkur qatorga *bilmoq* ko‘makchi fe‘li kiritilmagan¹⁷.

Ayrim tadqiqotlarda ravishdosh shakllari, ya‘ni morfemalarga e‘tibor qaratilib, fe‘lning leksik ma‘nosiga ma‘lum bir grammatik ma‘no qo‘shish uchun ko‘makchi fe‘l ishlatiladi, degan qarashlar ham mavjud¹⁸.

Tahlillardan ayon bo‘ladiki, o‘zbek tilshunosligidagi ko‘makchi fe‘llar haqidagi nazariyalarda ko‘makchi fe‘llarning semantik va funksiyonal vazifalari tasnifida, shuningdek, ularning turlarini belgilashda miqdor jihatdan farqlar kuzatiladi. Umuman, ko‘makchi fe‘llar bilan bo‘liq masalalarda o‘zbek tilshunoslarining hanuz bir to‘xtamga kelmaganligini aytish mumkin.

Koreys tilida ko‘makchi fe‘llar mavzusi XIX asrning oxirlaridan o‘rganila boshladi. Bu davrdagi dastlabki tadqiqotlar xorijliklarga koreys tilini o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular asosan chet ellik tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirildi¹⁹. Koreys tilshunosligi tarixida dastlab 최광옥 (Cho‘e Go‘ango‘g) va 유길준 (Yu Giljun)larning asarida²⁰ ko‘makchi fe‘llar mavzusiga to‘xtalib o‘tgan. Biroq mazkur asarda 조동사 [jo‘do‘ngsa], ya‘ni yordamchi fe‘llar haqida yuzaki ma‘lumot berilgan bo‘lib, mavzuga chuqur kirib borilmagan. Keyinroq 최현배 (Cho‘e Hyonbe) “Koreys tili grammatikasi”da²¹ ko‘makchi fe‘l tushunchasini 보조동사 [bo‘jo‘do‘ngsa] termini bilan bergan. Shu tariqa koreys tili grammatikasiga 보조동사 [bo‘jo‘do‘ngsa], ya‘ni ko‘makchi fe‘l termini kirib keldi va u hozirgi kunda ham aynan qo‘llanilmoqda. Keyinchalik 이주행 (I Juheng), 이관규 (I Go‘angyu), 유목상 (Yu Mo‘gsang), 김기혁

¹⁵ Хожиев А. Фёъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 49.

¹⁶ Пулатов А.К., Мўминова Т.П., Пулатова И.О. Дунёвий ўзбек тили (1–жилд). Ўзбек тилида фёъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилларидаги кўринишлари. – Тошкент, 2003. – Б. 294–301.; Turniyozov N. Rahimov A. O‘zbek tili (*ma‘ruzalar matni*) 1-qism. – Samarqand, 2006. – Б. 154.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). – Toshkent. Universitet, 2006. – B. 202.

¹⁷ Turniyozov N., Rahimov A. O‘zbek tili (*ma‘ruzalar matni*) 1-qism. – Samarqand, 2006. – B. 154.

¹⁸ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). – Toshkent: “Universitet”, 2006. – B. 201.

¹⁹ Ridel Félix Clair. 한어문전(韓語文典). – Yokohama, 1881.; William Imbrie. English-Japanese Etymology. – Tokyo, R. Meiklejohn & Co., 1880.; Horace Grant Underwood. 한영문법(韓英文法). – Yokohama, 1890.

²⁰ 유길준. 대한문전(大韓文典). – 안악면학회 (安岳勉學會), 1908, 1909.

²¹ 최현배. 우리말본. – 정음사, 1937, 1955.

(Gim Gihyog), 황병순 (Ho'ang Byongsun), 고영근 (Go' Yonggin), 남기심 (Nam Gishim), 서정수 (So Jongsu), 손세모돌 (So'n Semo'do'l), 민현식 (Min Hyonshig), 장수진 (Jang Sujin)²² tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

손세모돌 (So'n Semo'do'l)²³ning “O'rta asr va hozirgi koreys tilshunosligida ko'makchi fe'llarni o'rganish masalasi va vazifalar” deb nomlangan tahliliga qaralsa, 1974–2017-yillarda ko'makchi fe'l mavzusi bo'yicha qilingan ishlarining soni 491 taga mansub. Ulardan PhD dissertatsiyasi 30 ta, magistrlik ishi 121 ta va maqolalarning soni 340 tadan iborat. Koreys tilshunosligida ko'makchi fe'l bo'yicha tadqiqot ishlarining tendentsiyasi avval ko'pincha sintaksis tahlili orqali qiladiganlari keyin semantik tahliliga asta-sekin o'zgarib ko'paygan. Shuningdek, XXI asrga kelib xorijiy tillar bilan chog'ishtirish, qiyoslash boshlangan hamda o'qitish metodlarga bag'ishlangan. Bunday tafovutlar bois 보조용언 [bo'jo'yo'ngon]ning termini hamda ko'makchi fe'llarning chegarasi borasida hanuz bir to'xtamga kelinmagan.

O'zbekistonda esa koreys tilidagi ko'makchi fe'llar masala o'rganilishi G.Yunusovning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi²⁴ o'zbek tilida amalga oshirilgan ilk ilmiy ish hisoblanadi. Dissertatsiyada, asosan, koreys tilidagi harakat jarayoni va holatni ko'rsatuvchi ko'makchi fe'llarning semantik-funksiyonal xususiyatlari tadqiq etilgan.

Modallik kategoriyasi hozirgi tilshunoslikning muhim va dolzarb muammolaridan biri bo'lib, dunyo tilshunosligida mazkur masalaga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan²⁵.

Inglizchada “modality” 1907-yildan hozirgi kunga qadar tilshunoslikda modallik nazariyasi sifatida ishlatib kelinmoqda²⁶. Tilshunoslikda modallik deganda, odatda,

²² 이선웅. 현대 국어 보조용언 연구. – 서울대학교, 1995.

²³ 손세모돌. 중세·근대국어 보조용언 연구의 쟁점과 과제. – 국어사 연구 제 25호, 2017. – P. 10–12.

²⁴ Юнусова Г. Замонавий корейс тилида кўмакчи феълларнинг семантик-функционал хусусиятлари: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020.

²⁵ Виноградов В. В. О Категории модальности и модальных словах в русском языке. // Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М, Наука, 1975. – С. 53–87.; Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Изд-во иностр. лит-ры, 1995. – С. 415.; Адмони В. Г. О Модальности предложений. – Учен. Зап. Ленингр. гос. Пед. ин-та, 1956 – Т. 21. вып. 1. – С. 47–70.; Золотова Г. А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. – М.: Наука, 1973. – С. 350.; Гак В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков. Уч для пед. ин-тов. 2-е изд. – М.: Просвещение, 1983. – С. 287.; Колшанский Г. В. К вопросу о содержании языковой категории модальности // Вопросы языкознания №1, 1961. – С. 94–98.; Ярцева В. Н. Контрастивная грамматика. – М, Наука, 1981. – С. 86.; Бондаренко В. Н. Виды модальных значений и их выражение в языке. – Филологические науки №2, 1979. – С. 54–61.; Петров Н. Е. Модальные слова в якутском языке. – Новосибирск.: Наука, 1984. – С. 207.; Ваулина С. С. Языковая модальность как функционально-семантическая категория (диахронический аспект). – Калининград: Изд-во Калинингр. ун-та, 1993. – С. 70.; Немец Г. П. Актуальные проблемы модальности в современном русском языке. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовск ун-та. – С. 187.; Лекант П. А. К вопросу о модальных разновидностях предложения // Современный русский язык: Лингвистический сборник. – М Просвещение, Вып 6, 1976. – С. 92–102; Ермолаева Л. С. Понимание модальности в современной лингвистике (на материале немецкого и английского языков) // Лингвистика и методика в высшей школе: сб. Научи. Тр. / Моск. Пед. ин-т иностр. Яз. Им. М.Тореза. – Вып. 8, М, 1978. – С. 47–60.; Панфилов В. З. Взаимоотношение языка и мышления. – М.: Наука, 1971. – С. 286.; Беляева Е. И. Функционально-семантические поля модальности в английском и русском языках. – Воронеж: Изд-во Вороижевск. ун-та, 1985. – С. 180.; Агазаде Н. К. К вопросу о категории наклонения и модальности в современном азербайджанском языке. – Баку : Изд-во Акад наук АзССР, 1965. – С. 112.; Зайнуллин М. В. Модальность как функционально-семантическая категория. – Саратов: Изд-е Саратовск. ун-та, 1986. – С. 124.; Зайнуллин М. В. О сущности и границах языковой категории модальности. – Уфа: РИО БашГУ, 2000. – С. 292.

²⁶ Nuyts Auwera. The Oxford Handbook of Modality and Mood. – Oxford University Press, 2016. – P. 11.

so‘zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya yoki so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi²⁷.

“Modallik”ning eng mashhur ta‘rifi John Lyonsning “Semantics” monografiyasida keltirilgan. John Lyonsning izohlashicha, modallik deganda, so‘zlovchining fikr ifodalangan jumla yoki jumlada tasvirlangan vaziyatga munosabati (“his opinion or attitude towards the proposition that the sentence expresses or the situation that the proposition describes”) tushuniladi²⁸. Ya’ni so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi. John Lyons ingliz tilidagi “must”ning ikki ma’noviy xususiyati: “taxmin” va “zarurat”ga ko‘ra modallikni ikki turga bo‘lgan. Charles J.Fillmore esa gapni “jumla + modallik”ka ajratib, inkor, zamon, aspekt kabi grammatik kategoriyalarni modallikka kiritgan²⁹. Uning fikricha modallikning “epistemic modality” va “deontic modality” turlari mavjud. Frank Palmer ham modallikni ikki turga tasniflagan: “propositional modality” hamda “event modality”. Shuningdek, Bybee Joan “deontic modality”ning o‘zini ham ikkiga ajratadi: “agent-oriented modality” va “speaker-oriented modality”³⁰.

O‘zbek tilshunosligida ham modallik kategoriyasi ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelgan³¹.

Modallik kategoriyasini fe’llar misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, “ingliz tilida: bog‘lama, yordamchi va modal fe’llar; o‘zbek tilida: bog‘lama, yordamchi (to‘liqsiz) va ko‘makchi fe’llar” mavjud. O‘.Yusupov modal fe’llar ifodalaydigan ma’nolar murakkab ekanligini hisobga olib, ularni o‘zbek tiliga tarjimalari orqali tushuntirishga harakat qilgan va modal fe’llarning o‘zbek tilidagi muqobillarini keltirib o‘tgan³². Sh.Jalolova O‘.Yusupovning modal fe’llar semantikasi haqidagi fikrlarini davom ettirib uning tahlil natijalari o‘zbek tilida modal fe’llar mavjud emasligi ko‘rsatdi. Ko‘p hollarda o‘zbek tilida ular o‘rniga modal so‘zlar (*shart, zarur, mumkin, ehtimol, kerak*) to‘g‘ri kelib, xuddi ingliz tilidagi modal fe’llar bajargan vazifada qo‘llanishi kuzatildi³³.

A.Hojiyev o‘zbek tilidagi fe’llar misolida modallik masalasini quyidagicha izohlaydi: “O‘zbek tilida “ko‘makchi fe’llarning ma’lum bir gruppasi so‘zlovchining harakatga bo‘lgan turli munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolarni – modal ma’nolarni ifodalaydi... Ko‘makchi fe’llar ifodalaydigan modal ma’nolar juda xilma-xil”³⁴dir.

Koreys tilida modallik tushunchasi dastlab “양상 [yangsang]” deb nomlangan. Keyinchalik “양태 [yangte]” termini bilan ifodalana boshlandi³⁵.

Koreys tilshunosligida modallik masalasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish 2000-yildan kuchaydi. Modallik kategoriyasini ilmiy-nazariy tahlil qilishda bir-biridan

²⁷ Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М., 1981. – С. 145.

²⁸ Lyons John. Semantics. – Cambridge University Press, 1977. – P. 452.

²⁹ Fillmore. C. J. The case for Case, In E. Bach and R. T. Harms(eds.), Universals in Linguistic Theory. – London: Holt, Rinehart and Winston, 1968. – P. 23.

³⁰ Bybee Joan. The Evolution of Grammar. – The University of Chicago Press, 1994. – P. 176–178.

³¹ Qarang: Ёқубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантик ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2007. – Б. 181.; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Ўзбекистон, 1992. – Б. 370–371.

³² Yusupov U.K. Ingliz tili grammatikasidan universal qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 176–180.

³³ Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштирма тадқиқи. – Филол. фан. б-ча фалс. д-ри. (PhD) ... дис. – Тошкент: 2019. – Б. 17.

³⁴ Хожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 54–55.

³⁵ 장경희. 現代國語의 樣態範疇研究. – 서울대학교, 1985.; 이선웅. 한국어 문법론의 개념어 연구. – 서울: 월인, 2012. – P. 378.

farqli qarashlar yuzaga keldi. Koreys tilshunoslari koreys tilidagi modallikni tadqiq etishda John Lyons, Bybee Joan va Frank Palmer singari xorijlik olimlarning qarashlarini koreys tiliga moslashtirish asosida o‘zilarining tasniflarini ilgari surishdi³⁶. Shuningdek, koreys tilshunosligida modal ma’noli ko‘makchi fe’llarning ayrimlarini alohida olib tadqiq qilgan ishlar ham mavjud³⁷.

Biroq mazkur ishlarda A.Hojiyevning tadqiqotidagidek koreys tilida modal ma’no ifodalovchi ko‘makchi fe’llarning barchasini qamrab olinib, atroflicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotning **ikkinchi bobi «O‘zbek tilida yetakchi fe’lga -a, -y yoki -(i)b ravishdoshi orqali birikkan modal ma’noli ko‘makchi fe’llarning koreys tilida ifodalanishi»** deb nomlanadi. Mazkur bobda o‘zbek tilshunosligida faqat bitta affiks orqali birika oladigan modal ma’no ifodalovchi ko‘makchi fe’llar hamda ularning koreys tilidagi muqobil shakllari yoritilgan. Modal ma’no ifodalovchi ko‘makchi fe’llardan -a, -y affiksi orqali birikadiganlar quyidagilar: *olmoq, bilmoq, bermog va yozmoq*. Faqat -(i)b affiksi orqali birikish mumkin bo‘lganlar esa quyidagilar: *bo‘lmoq, qo‘ymoq, qaramoq, boqmoq, yurmoq va o‘tirmoq*.

Mazkur bobning **“Ol, bil, bo‘l ko‘makchi fe’llarining koreys tilida aks etishi”** deb nomlangan birinchi paragrafida o‘zbek tilshunosligida bir-biriga o‘xshash jihatlar mavjud bo‘lgan uchala ko‘makchi fe’llar va ularning koreys tilida ifodalanishini yoritilgan.

A.Hojiyevning ta’kidlashicha, *olmoq* ko‘makchi fe’li ravishdoshning -a, -y affixlari bilan yasalgan turiga birikkanda ikki modal ma’noni bildiradi:

- 1) Harakatni bajarish qobiliyatiga egalik.
- 2) Harakatni bajarish imkoniyatiga egalik, qodirlik.

Bizningcha, A.Hojiyevning ushbu tasnifiga quyidagi qo‘shimchalarni kiritish mumkin:

- 1) Harakat bajarish qobiliyatiga egalikni ikki turga bo‘lish mumkin:

- 1.1) harakatni qodirlik, (tug‘ma) qobiliyat, o‘z imkoniyatiga ega holda bajarish;

- 1.2) harakatni qodirlik, bilim, o‘rganish asosida o‘z imkoniyatiga ega holda bajarish.

- 2) Harakatni bajarish imkoniyatga egalik, bajaruvchining o‘z (ichki) imkoniyati bilan birga, tashqi imkoniyatga ega bo‘lishni taqozo etadi:

Bu yerda yangi bino qura olaman. // bino qurish uchun o‘z imkoniyati (bilim, qobiliyat, xohish)dan tashqari tashqi imkoniyat (mablag‘, bo‘sh yer, ruxsat ...va boshqalar) ham kerak.

³⁶ Qarang: 김지은. 우리말 양태용언 구문 연구. – 한국문화사출판, 1998.; 이선웅. 국어의 양태 체계 확립을 위한 시론. – 관악어문연구 26, 2001.; 박재연. 국어 양태의 화·청자 지향성과 주어 지향성. – 국어학회, 2003.; 이효정. 한국어 교육을 위한 양태 표현 연구. – 상명대학교 2004.; 임동훈. 한국어의 서법과 양태 체계. – 한국어 의미학 26, 2008.; 엄녀. 한국어 양태 표현 교육 연구. – 한국문화사, 2010.

³⁷ Qarang: 김지은. 도움움직씨 ‘(-아) 버리다’의 의미에 대한 연구. – 한글학회 한글 207, 1986. – P. 125–150.; 박선옥. 完了相 표현의 보조동사 ‘버리다’와 ‘내다’에 대한 通時的 研究. – 한국어문교육연구회 語文研究 137, 2008. – P. 160–182.; 손세모들. 보조 용언의 의미에 관한 연구-‘두다/놓다, 버리다, 내다’를 중심으로. – 한글학회 한글 223, 1994. – P. 107–129.; 이기동. 조동사 ‘놓다’의 의미 연구. – 한글학회 한글 163, 1979. – P. 465–496.; 장미라. 한국어 보조 용언의 상적·양태적 의미 기능과 통사적 특징. – 배달말학회 배달말 38호, 2006. – P. 33–60.; 한송화. 한국어 보조용언의 상적 기능과 양태기능, 화행적 기능에 대한 연구. – 국제한국어교육학회 한국어교육 11권, 2호, 2000. – P. 189–209.

Endi (uzoq vaqt kasallikdan so'ng) **u ishni boshlay oladi.** // harakatni bajarish uchun o'z imkoniyati (bilim, qobiliyat, xohish, sog'lik)dan tashqari tashqi imkoniyat (mablag', ruxsat, ish joyi ...va boshqalar) ham zarur.

O'zbek tilida yetakchi fe'l + -a, -y *bilmoq* shaklidagi ko'makchi fe'lli qo'shilmasi tarzida ishlatilish mumkinligi ma'lum.

bil ko'makchi fe'li yetakchi fe'ldagi harakatni bajarishga qodirlik, shu harakatning subyekt qo'lidan kelishi (bo'lishsiz formada qodir emaslik, qo'lidan kelmaslik) ma'nosini bildiradi. Shunga ko'ra, u *ol* ko'makchi fe'lining sinonimi hisoblanadi. A.Hojiyev *bilmoq*ning ko'makchi fe'l bo'lib kelganda yetakchi fe'l ma'nosiga bo'g'liq bo'lishini to'g'ri ta'kidlagan.

Bo'lmoq ko'makchi fe'li *olmoq* va *bilmoq* ko'makchi fe'llarining modal ma'noni ifodalashi bilan yaqin ma'noni bildiradi.

Tahlilardan aniqlandiki, *bo'l* ko'makchi fe'li modal ma'noni ifodalaganda quyidagi xususiyatlarga ega:

1)*bo'l* ko'makchi fe'li yetakchi fe'lga faqat *-(i)b* affiksi orqali birikadi. // *o'tib bo'ladi.*

2)ko'makchi fe'l faqat kelasi zamon shaklida bo'ladi. // *o'tib bo'ladi.*

3)faqat III shaxs birlik shaklida ishlatiladi, lekin III shaxs ma'nosini anglatmaydi. Umumiy, mumkinlik ma'nosini bildiradi: *o'tib bo'ladi // o'tish mumkin.*

4)Shart mayli ifodalagan ma'noga yaqin bo'ladi. // *o'tsa bo'ladi.*

Koreys tilida esa o'zbek tilidagi *olmoq* va *bilmoq* ko'makchi fe'llariga mos keladigan ko'makchi fe'llar yo'q. Shuning uchun boshqa uslub bilan foydalanish kerak. Bular vaziyatiga qarab har xil bo'ladi va affikslar bilan birikish shakliga bog'liq. Ya'ni *알다* [alda] (*bilmoq*) fe'li va *있다* [itda] so'zining sifat orqali qo'llanganda qodirlik modal ma'nosini ifodalash mumkin.

알다 [alda] (*bilmoq*) fe'li, *-을 줄 알다* [il jul alda] shaklida qo'llanib, qandaydir ish-harakatni bajarish qobiliyatiga ega bo'lganda qo'llanadi. *있다* [itda] so'zi ko'makchi fe'l sifatida qo'llanganda esa, *-어 있다* [o itda] va *-고 있다* [go' itda] shaklida qo'llanib, yetakchi fe'ldagi harakat davomliligi yoki tugallangan holatning davomliligini bildiradi. *있다* [itda] so'zi, *-을 수 있다* [il su itda] shaklida birikkanda, biron bir ish-harakatning amalga oshishi yoki sodir bo'lishi mumkinligini ifodalaydi. Lekin *-을 줄 알다* [il jul alda] shakli va *-을 수 있다* [il su itda] shaklidagi *알다* [alda] (*bilmoq*) va *있다* [itda] ko'makchi fe'l deb hisoblanmaydi.

Mazkur bobning "**Qo'y, qara,boq, yur,o'tir ko'makchi fe'llarining koreys tilida ifodalanishi**" deb nomlangan ikkinchi paragrafida o'zbek tilshunosligida faqatgina *-(i)b* affiksi orqali birikib, modal ma'no ifodalaydigan ko'makchi fe'llar va ularning koreys tilidagi muqobil shakllari yoritilgan.

qo'y ko'makchi fe'lining modal ma'nolari va uning koreys tilida ifodalanishi

qo'y ko'makchi fe'li yetakchi fe'lga ravishdosh yasovchi *-(i)b* qo'shimchasi orqali birikkanda quyidagi modal ma'nolarni bildiradi va xususiyatlarga ega:

1)harakatning xohish-ixtiyordan tashqari, xohish-ixtiyorga qarama-qarshi holda yuz berishni bildiradi. Mas., *Ishqilib, xafa qilib qo'yibdi-da* (O'. Hoshimov. Dunyoning ishlari, 12- bet);

2)harakatning xoshish-ixtiyordan tashqari, xohish-ixtiyorga qarama-qarshi bajarilishi ma'nosida *qo'y* ko'makchi fe'li buyruq-istak maylining bo'lishli shaklida qo'llanmaydi. Mas., *Bildirib qo'yma, sezdirib qo'yma*;

3)*qo'y* ko'makchi fe'li harakatning bajarilishi va uning natijasi sifatidagi holatning yuzaga kelishini ifodalaydi;

4)*qo'y* ko'makchi fe'li yetakchi fe'lga hech qanday shakl yordamisiz birikkanda, yetakchi fe'ldagi harakat xohish-ixtiyorga qarama-qarshi harakat ekanligini bildiradi. Mas., *Xo'jabekov qo'rqoqlik qilib qochdi. Bu bilan o'zini fosh qildi-qo'ydi* (S. Anorboyev).

Shuningdek, *qo'ymoq* va *qolmoq* ko'makchi fe'llari o'zaro sinonim hisoblanadi. Farqli xususiyati, *qo'ymoq* ko'makchi fe'li o'timli fe'llar, *qolmoq* ko'makchi fe'li o'timsiz fe'llar bilan birikishidir. O'zbek tilidagi *qo'ymoq* ko'makchi fe'li modal ma'noni bildirgan holatida koreys tilida boshqa ko'makchi fe'llardan foydalanish lozim. Bular quyidagilar: -고 팔다 [go' malda], -어 버리다 [o borida], -게 되다 [ge do'eda], -지 않다 [ji anta], -고 앓다 [go' andda], -고 자빠지다 [go' jabbajida] va -려(고), -고자 들다 [ryogo', go'ja dilda]. Bular asosan, 팔다 [malda] va 버리다 [borida] ko'makchi fe'llari o'zbek tilidagi *qo'ymoq* ko'makchi fe'li bilan tuzilgan gapga to'g'ri keladi va ularni *qo'ymoq* ko'makchi fe'li o'rniga keltirib ishlatilsa, ma'noviy jihatdan ham sintaktik jihatdan ham teng keladi. 앓다 [anta] ko'makchi fe'li esa *qo'ymoq* ko'makchi fe'li bo'lishsizlik shaklida qo'llangan holatida to'g'ri keladi. -고 앓다 [go' andda], -고 자빠지다 [go' jabbajida] va -려(고), -고자 들다 [ryogo', go'ja dilda] shakldagi ko'makchi fe'llari esa yetakchi fe'ldagi harakat bajarilmasligi kerak bo'lgan harakat ekanligi ma'nosini bildiradi. Lekin keltirgan shakllari bilan o'zbekchada tuzilgan gapni koreys tiliga tarjima qilganda to'g'ri kelmaydi va o'zbek tiliga qayta tarjimasini ham *qo'ymoq* ko'makchi fe'li bilan qo'llana olmaydi.

qara, boq ko'makchi fe'llarining koreys tilida ifodalanishi

O'zbek tilida *ko'rmoq* ko'makchi fe'li bilan bir xil ma'noni ifodalaydigan ko'makchi fe'llar *qaramoq* va *boqmoq* hisoblanadi. Bu ko'makchi fe'llar xuddi *ko'rmoq* ko'makchi fe'ldek yetakchi fe'lga -(i)b affiksi bilan bog'lanib, yetakchi fe'ldagi harakatni sinash, bilish(belgilash) ma'nosini ifodalash uchun qo'llaniladi. Bir xil ma'no ifodalovchi *ko'r, qara, boq* ko'makchi fe'llari o'rtasida stilistik jihatdan biror farq yo'q. O'zbek tili o'rganuvchi *qara, boq* va *ko'rmoq* ko'makchi fe'llarini qaysi vaziyatda hamda qaysi yetakchi fe'llar bilan qo'llanishini ajratishda qiyinchilikka duch keladi. Buni o'rganish yo'li faqatgina ko'p o'qish va eshitish bilan bog'liqdir.

ko'rmoq, boqmoq, qaramoq fe'llari mustaqil fe'l sifatida ma'nodosh, ammo ular ko'makchi fe'l vazifasida kelganida qo'llanish nuqtai nazaridan farqlanadi. Ya'ni *ko'rmoq*, ko'makchi fe'l sifatida har qaysi yetakchi fe'lga qo'shib, undan anglashilgan harakatni sinash ma'nosini ifodalaydi. *Boqmoq* ham ko'makchi fe'l sifatida aynan *ko'rmoq* ko'makchi fe'li bilan ham ma'no, ham vazifa nuqtai nazaridan teng keladi, farqi shundaki, *boqmoq* fe'li *ko'rmoq* fe'lga nisbatan kam ishlatiladi (asosan og'zaki uslubda). *Qaramoq* ko'makchi fe'li esa bu ma'noda juda kam fe'llar bilan birika oladi. Shuningdek, bu vazifa va ma'noda hamma fe'l shaklida ham ishlatilmaydi. O'rgangan matnlarimizda *o'ylab qara+sa+m/k* shart mayli, I shaxs shaklidan boshqa shaklda uchratmadik.

O'zbek tilidagi *qara* va *boq* ko'makchi fe'llarini koreys tiliga tarjima qilish uchun faqatgina *보다* [bo'da] (*ko'rmoq*) ko'makchi fe'lini qo'llash yagona yo'l hisoblanadi.

yur, o'tir ko'makchi fe'llari va ularning koreys tilida ifodalanishi

Modal ma'no ifodalovchi *yur, o'tir* ko'makchi fe'llari o'tgan yoki hozirgi zamon shaklida kelganda *ma'qul emaslik* bilan birga *afsuslanish* ma'nosi mavjud. *Yur* ko'makchi fe'li hozirgi zamon davom fe'li shaklida qo'llanganda, ish-harakat bajarilgan, ya'ni o'tgan zamon ma'nosida ifodalanadi. Bu vaziyatda harakat bajarilgan sababli *afsuslanish* ma'nosi *ma'qul emaslik* modal ma'nosidan ham kuchliroq bo'ladi. O'zbek tilshunosligida mavjud *yur, o'tir* ko'makchi fe'llarining modal ma'nosini koreys tilida *있다* [itda] ko'makchi fe'li va buning boshqa ifodalash uslubi: *안다* [andda] hamda *자빠지다* [jabbajida] ko'makchi fe'llaridan foydalanib ifodalash mumkin.

Mazkur bobning **“Ber, yoz ko'makchi fe'llarining koreys tilida namoyon bo'lishi”** deb nomlangan uchinchi paragrafida o'zbek tilshunosligida *-a, -y* ravishdosh orqali birikkan modal ma'no ifodalovchi ko'makchi fe'llarning koreys tilidagi ifodalanishini yoritib berilgan.

ber ko'makchi fe'lining koreys tilida ifodalanishi

O'zbek tilida *ber(ver)* ko'makchi fe'li ravishdoshning *-a, -y* affikslari bilan yasalgan turiga birikkanda, harakatning bajarilishi uchun to'siq, monelikning yo'qligi kabi modal ma'nolarni bildiradi. *bermoq* ko'makchi fe'li koreys tilida doim ham unga so'zma-so'z tarjima qilish orqali teng keladigan ko'makchi fe'l bilan to'g'ri kelmaydi. *bermoq* ko'makchi fe'lining ma'nosini koreys tilidagi *준다* [juda] ko'makchi fe'li orqali ifodalash mumkinki, *준다* [juda] ko'makchi fe'lida modal ma'nodan tashqari yo'nalish ma'nosi ham mavjud. O'zbek tilida *bermoq* ko'makchi fe'li bilan yasalgan gapda yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning moneliksiz, to'siqsiz, oson bajarilishi ma'nosini koreys tilida *거뜰히* [goddinhi], *문제없이* [munjeobshi] ravishlar bilan *준다* [juda] ko'makchi fe'lini foydalanib ifodalash mumkin. Shuningdek, o'zbek tilida *bermoq* ko'makchi fe'li modal ma'noni ifodalashini gapda qo'llanga ravish so'zlar ham tasdiqlashi mumkin bo'ladi, koreys tilida bu holat esa ravish bilan qo'llanish lozim.

yoz ko'makchi fe'lining koreys tilida ifodalanishi

